

**DARSNI TASHKILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK METODLARNING VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

Zarina Hayitboyeva Otanazarovna

Xo'jayli tumani 3-son maktab psixologi

Annotatsiya: Keltirilgan ushbu maqolada dars o'tish tizimini tubdan o'zgartirish, maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida dars o'tish jarayonini yanada qiziqarli va yangi metodlar yordamida samarali qilib o'tish haqida fikrlar va takliflar keltirilgan. Shu bilan birgalikda pedagogik metodlarni o'zgartirib ularning o'rniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda o'zgacha dars uslubini yaratish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, metodologiya, texnika, interfaol metodlar, kommunikatsiya, rag'batlantirish.

Bugungi kunda har bir o'qituvchi dars o'tish jarayonida o'zining bor mahoratini, qobiliyatini ishga solishi kerak chunki, o'quvchilar jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lgan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalana bilmog'i darkor. Darsni tashkillashtirishda ham aynan o'quvchining bilim samarasini oshirishga asosiy diqqatini qaratmog'i lozim. Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday hollarda o'qituvchi o'z kasbiga puxta yondashgan holda darslarni tashkil etsa bir umr hurmat-e'tiborda bo'ladi. Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoldi. Dars mavzulari kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin.

Zamon talabi shundan iboratki dars jarayonida o'quvchining diqqatini mavzuga qarata olish, o'tilayotgan mavzuni yangicha usullarda o'tish, o'quvchi darsni qiyinchiliksiz tushunishi uchun unga oson usulda tushuntirish yo'llarini topish sanaladi.

Ta'lim vositalari -o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitishni samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'lim berishning texnik vositalari -o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi, o'quvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va eslab qolishlariga imkon beradi. Bunday vositalarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend, ...

Yordamchi ta'lim vositalari - grafiklar, chizmalar, na'munalar, tarqatma materiallar va boshqalar. O'quv-uslubiy materiallar - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar).

Darsni tashkillashtirishda darsning vaqti, o'quvchilarning darsni tushunish darajasi, zamonaviy o'quv qo'llanmalari barchasi inobatga olinsa yaxshi bo'ladi. zamonaviy texnologiyalar deganimiz elektron doskalar, videoroliklarni qo'yish uchun proyektorlar, har bir o'quvchi uchun alohida jadval, chizmalar berilishi kerak bo'ladi. chunki o'quvchi qancha zamonaviy texnologiyalar yordamida darsga jalb qilinsa o'qishga nisbatan qiziqishi ortadi va darsni o'zlashtirishi samarali bo'ladi. bundan tashqari o'qituvchi dars ni tashkillashtirish davomida har doim ikkinchi va uchinchi rejalarini tuzib qo'yishi darkor. Sabab, o'quvchi dars jarayonida

qandaydir tushunmovchiligi bo'lsa uni boshqa usullar yoradimida ham darsga qiziqтира olishi kerak bo'ladi.

Darsni samarali tashkillashtirish uchun biz quyidagi jihatlarni yaxshilab o'rganishimiz va ularga amal qilishimiz kerak.

1. Maqsadni belgilash;
2. Asosiy bilim manbaiga;
3. Ta'lim usuliga;
4. O'quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
5. O'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga.

Innovatsion texnologiya- (innovatsiya inglizcha "innovate"- yangilik kiritish, yangilik, texnologiya esa yunoncha "texnos"- san'at, mahoratva "logos"- fan) ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish deganidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir.

Mavzuni o'rganishning taxminiy bosqichlari quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1. Mavzu va uning rejasi beriladi;
2. O'quv faoliyati natijalari eslatiladi;
3. Mavzuni uning ahamiyatga qisqa to'xtalinadi;
4. Mavzuni tushuntirish ketma- ketligi texnologik loyiha asosida o'qituvchi maqsadiga mos kelishi lozim;
5. O'quvchilar diqqatini jalb etib, mavzu savollari haqida muammoli vaziyatlar hosil qilish;
6. Tushuntirish jarayonida o'quv adabiyotlari yoki tarqatma material bilan ishlashga ahamiyat beriladi;
7. O'quvchining tarqatma material yoki o'quv adabiyotlardan asosiy tushunchalarni o'qish va yozishni tashkil etishga imkoniyat yaratish;
8. Mavzuni o'rganish darajasini tekshirish, o'quvchilarga og'zaki savollar berib borish orqali (masalan, analitik geometriya tushunchasining mohiyati nima?);
9. O'quvchilar javoblariga izoh berish yoki to'ldirish, to'g'ri javoblarni rag'batlantirish;

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muxiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shunga ko'ra yoshlarining talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umum kasbiy fanlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kun dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi; - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi; - o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment kilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan ulardan biri hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 20-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni xayotga chorladi. Bu texnologiya negizida tanikli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Katskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir. Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi: -shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv; -dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua; -tarbiya kontseptsiyasi; -atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanib, O'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatga erishdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda inson jadallik bilan rivojlanmoqda. Dars jarayonida turli xil samarali metodlarni yo'lga qo'yib dars o'tish nafaqat o'quvchini balki o'qituvchining ham savodxonligini oshiradi. Turli xil metodlardan foydalangan o'qituvchi albatta yaxshi bola tarbiyalay oladi. Zamonaviy texnologiyalar darsni albatta samarali qilib o'tishni ta'minlaydi. O'qituvchi uni to'g'ri foydalana olishi kerak. Zamon rivojlanishi bilan hayotning barcha sohalarida, xususan pedagogika ya'ni o'qitish va ta'lim jarayonida ham ko'pgina yangiliklar vujudga keladi. Va har bir qilingan islohot kelajakni yanada muvaffqiyatli yanada ishonchli qilib ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.

3. Yunusovna, S. Z. The Role of the Conversational Implicative in Linguopragmatics on the Basis of Formal and Informal Letters. TDO'TAU, 2022
4. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007 yil
5. Sayibova Zuxra Yunusovna „INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI" ilmiy maqolasi 2023-yil
5. www. Inter- pedagogika. ru.